

UMARSHAYX MIRZONING KAMOL TOPISHI

Nishonov Usmonbek Karimovich

Farg‘ona davlat universiteti Tarix fakulteti O‘zbekiston tarix kafedrasi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Amir Temur davlatining rivojiga o‘zining sarkadalik qobiliyati bilan munosib hissa qo‘shtgan o‘g‘illaridan biri Umarshayx mirzoning yoshlik chog‘lari, kamol topishida yoshlik yillarining ahamiyati tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Jahongir mirzo, Amir Husayn, Hoji Barlos, Turmush Og‘o, O‘ljoy Turkon Og‘o, Qadoq Xotun.

ЮНОШЕСКИЕ ГОДЫ УМАРШАЙХА МИРЗЫ

Нишонов Усмонбек Каримович

Ферганский государственный университет, исторический факультет, кафедра истории Узбекистана, магистрант 1 курса

Аннотация: В статье на основе исторических источников анализируются юношеские годы Умаршайха Мирзы, одного из сыновей Амира Темура, внесшего достойный вклад в развитие государства Темуридов. Особое внимание уделяется периоду его становления и роли, которую сыграли юношеские годы в его жизни.

Ключевые слова: Амир Темур, Джахангир Мирза, Амир Хусайн, Ходжа Барлас, Турмуш Ага, Ульджай Туркан Ага, Кадак Хатун.

THE YOUTH YEARS OF UMAR SHEIKH MIRZA

Usmonbek Karimovich Nishonov

The Department of the History of Uzbekistan,

Master's student of the 1st level, FSU

Abstract: The article analyses, on the basis of historical sources, the early years of Umar Sheikh Mirza, one of the sons of Amir Temur, who made a worthy contribution to the development of the Temurid state. Special attention is paid to the period of his education and the role of his youth in his life.

Keywords: Amir Temur, Jahangir Mirza, Amir Khusain, Khoja Barlas, Turmush Aga, Uljai Turkan Aga, Kadak Khatun.

Amir Temur davlatining rivojiga o‘zining sarkadalik qobiliyati bilan munosib hissa qo‘shtgan o‘g‘illaridan biri Umarshayx mirzo haqida to‘xtalar ekanmiz, avvalo, uning yoshlik yillari tog‘risida bir qancha ma’lumot berib o‘tishimiz zarur. Zero, insonning qanday kamol topishida yoshlik yillarining ahamiyati katta.

Umarshayx mirzoning tavallud sanasi haqida turli qarashlar mavjud. Natanziy shunday deydi: “Umarshayx mirzo Amir Temurning ikkinchi o‘g‘li bo‘lib, uning to‘ng‘ich o‘g‘li Jahongir mirzo bilan bir yilda ya’ni 1356-yilda tug‘ilgan. Demak, u Jahongir mirzodan bir necha oy kichik bo‘lishi mumkin”¹.

¹ Natanziy. Muntahab ut-tavorixi Muiniy. – B.12

INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR RESEARCH & DEVELOPMENT

SJIF 2019: 5.222 2020: 5.552 2021: 5.637 2022: 5.479 2023: 6.563 2024: 7,805

eISSN :2394-6334 <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd> Volume 11, issue 04 (2024)

Amir Temur va temuriylar shajarasi bo'yicha tadqiqot olib brogan T.Fayziyev ham Umarshayx mirzoga batafsil to'xtalib o'tgan. Uning onasi Tuman Og'o bo'lgan, ba'zi manbalarda esa Tumlung O'nomi bilan atalgan.

Poyon Ravshanovning ma'lumotiga ko'ra: "Umarshayx mirzo tarjimayi holida aniq sanalardan biri uning 16 yoshi bilan bog'liq bir voqeа hisoblanadi. 1370-yilning 28-martida Sohibqiron turkiy amirlar va taniqli din arboblari ittifoqida ishonchdan qolgan Amir Husayn ustiga qo'shin tortadi. Balxning qadimiylar nihoyatda mustahkam bo'lgan Hinduvon qal'asiga kirib olgan Amir Husaynga qarshi bemisl jang bo'ladi. Bir vaqtlar bu qal'ani Chingizzon qo'shnlari ham zabit etolmagandi. Amir Husayn hukmronligiga nuqta qo'ygan bu muhorabada Umarshayx mirzo ham qatnashadi"². Poyon Ravshanov o'zining bu ma'lumotida Shomiy va Yazdiyning yozganlariga tayanadi. Shomiy bu haqida: "O'n olti yoshli Umarshayx bahodir qal'a darvozasi tomon yurdi. Uni bu ishdan har qancha qaytarmasinlar foyda bermadi. Shu yoshida haqiqiy mardonlik ko'rsatib, dushmanlarni to'xtatdi. Ammo jang oxirida oyog'iga o'q tegib, majruh bo'ldi. Usta jarrohlar yarali joyni dog'ladilar. U kamoli g'ayrati va mardonligidan oh demadi, qoshini ham chimirmadi"³. Poyon Ravshanovning ma'lumotlariga tayangan holda, tabiblar qonni to'xtatish uchun cho'g' qilib qizdirilgan temirni bosish usulida foydalanishgan.

Har ikki muarrixda ham Umarshayx mirzoning 1370-yilda 16 yoshda ekanligi ko'rsatilgani uchun Poyon Ravshanov Umarshayx mirzoni to'ng'ich farzand deb e'tirof etadi. T. Fayziyev esa uni 15 yoshda bo'lganini aytib o'tadi.

"Zafarnoma"ning 1394-yilda Bag'dod yaqinidagi Xarmatu qal'asini olish paytida shahzoda Umarshayx mirzoning halok bo'lganligi voqeasi keltiriladi. Yazdiy bu fojeaning 1394-yil yanvarida (tovuq yili bo'lgan) sodir bo'lganligini yozib qoldiradi. Muhimi, Sharafiddin Ali Yazdiy Umarshayx mirzoni qirq yil umr ko'rganligini alohida ta'kidlab o'tadi. Shunga ko'ra Umarshayx mirzo 1354-yilda tug'ilgan bo'lib chiqadi. Poyon Ravshanov o'zining "Amir Temur sulolasi" asarida akademik B.B.Bartoldning "Ulug'bek va uning davri" nomli asaridan shunday ma'lumotni keltirib o'tadi: "1360-yilga qadar Temurning 1376-yilda yigirma yoshida vafot etgan Jahongir va 1394-yilning yanvarida kurd qal'asini qamal qilish paytida o'ldirilgan Umarshayx ismli ikki o'g'li bor edi. "Zafarnoma"da uning 40 yoshda bo'lganligi aytildi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, Temurning to'ng'ich o'g'li Umarshayx bo'lib, u Jahongirdan katta edi. Lekin, nimagadir qariyb barcha manbaalarda Temurning katta o'g'li sifatida Jahongir tilga olinadi"⁴. Lekin "Zafarnoma"da keltirilgan ma'lumotlar Bartoldda ham ta'kidlab o'tilgan. Biroq, ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlarda Jahongir mirzo Amir Temurning to'ng'ich farzandi sifatida ko'rsatib kelinmoqda.

P.Ravshanov nima sababdan shu kungacha Jahongir mirzo tong'ich o'g'il sifatida talqin etilishiga o'zining "Amir Temur sulolasi" asarida: "Amir Temurning oilaviy hayoti ibtidosi tarixida Jahongir va Umarshayx mirzolarning tavallud vaqtin aniqlashning ahamiyati katta. Ko'plab tarixiy manbalarda Jahongir va Umarshayx mirzolarning birontasi to'ng'ich farzand sifatida ajratib ko'rsatilmaydi. Muhammad Jahongir mirzoning Sohibqiron o'g'illari orasida valiahd qilinishi, yoki avval vafot etishi, ehtimol, keying asrlarga oid tadqiqotlarda uning to'ng'ich o'g'il sifatida talqin etilishiga sabab bo'lgandir"⁵ deb yozgan.

² Ravshanov P. Amir Temur sulolasi. – Toshkent: Yangi asr avlodи, 2013. – B.130.

³ Shomiy Zafarnoma. – B.82.

⁴Ravshanov P. Amir Temur sulolasi. – Toshkent: Yangi asr avlodи, 2013. B-57.

⁵Ravshanov P. Amir Temur sulolasi. – Toshkent: Yangi asr avlodи, 2013. B-55.

Umarshayx mirzo qayerda tug‘ilgan degan savolga ham javob berib ketish o‘rinli. Shomiy aytganidek, turklar Kesh deb atagan Shahrisabz va unga qo‘siluvchi tobe joylar o‘scha vaqtida Amir Sohibqiron, ya’ni jahon mamlakatlarini fath etuvchi Amir Temur Ko‘ragon va Hoji Barlos tasarrufida edi. U joylar qadimdan ularga taaluqli edi. Lekin Umarshayx mirzo Keshda emas uning qishloqlaridan birida – Tarag‘ayda tug‘ilgan deydi Ravshanov. Bunday deyishiga Umarshayx mirzo tug‘ilganda Amir Temur 18 yoshda ekanligi va hali Kesh idorasiga kirmaganligini qishloq mulklarini boshqarayotganini asos qilib oladi. Fasih Havofiy yilnomasida ham, “Zafarnoma”larda ham, Natanziy asarida ham Umarshyx mirzo tug‘ilishi vaqt va joyi chetlab o‘tiladi. Aniq ma’lumot berilmagan. Masalani tadqiq etish dolzarb masalalardan biridir.

P.Ravshanov Umarshayx mirzoning ismi tog‘risida to‘xtalib shunday deydi: “Bobosi Amir Tarag‘ay din-u diyonatli kishi bo‘lganligi, chaqaloqning uning xonadonida tug‘ilganligi, ruhoniylar orasida e’tiqod qo‘yanlari ko‘p bo‘lganligi sabab ular bilan bu borada maslahatlashgan. Temurbekning o‘zi ham diyonatli yigit bo‘lgan va albatta otasi hayotlik vaqtida tug‘ilgan o‘g‘ilga ismni turgan gapki bobosi tanlagan”⁶.

Umarshayx mirzoning onasi kim ekanligi haqida ham bir necha fikrlar mavjud. Temurbekning ko‘z ochib ko‘rgan xotini amakisi Amir Joku Barlosning qizi bo‘lgan. Lekin Amir Joku Barlos qizining ism sharifasi biror manbada tilga olinmaydi. Turg‘un Fayziyev esa “Temuriylar shajarasi” nomli asarida Nurmish Og‘o ismini Turmush Og‘o deydi va uni Amir Joku Barlosning qizi deb ko‘rsatadi. Jahongir mirzoni O‘ljoy Turkon Og‘odan tug‘ilgan deb olsak, Umarshayx mirzoning onasi Amir Joku Barlosning qizi bo‘lganligi ehtimoli yuqori.

T.Fayziyevda Jahongir mirzoning onasi sifatida Turmush og‘o berilgan. “Temur tuzuklari”da Umarshayx mirzo tug‘ilgan paytda onasi olamdan o‘tganligi haqida “Chun ul ham olamdan rixlat qildi” deyiladi. Chaqaloqning parvarishi bilan Muhammad Tarag‘ayning bir ayoli Qadoq Xotun shug‘ullangan. Keyinchalik Amir Temur uni o‘z onasidek yaxshi ko‘rganligi shu sabab bilan bog‘liqdir.

Umarshayx mirzo 10 yoshga to‘lganida otasi Temurbek Amir Husayn bilan birga mo‘g‘ullarga qarshi shiddatli janglar olib borayotgan edi. Bungacha qancha taqiblarni boshdan kechirgan Amir Temur norasida o‘g‘li Umarshayxni uzoq vaqtlar ko‘rmagan. Ravshanovning yozishicha: “Umarshayx ham 60-yillar o‘rtalarida hayotga faol aralasha boshlagan. U bekzodalar uchun udum bo‘lgan harbiy hayotga erta kirishadi. Ot minishni, jang san’atini o‘rganadi. 14-15 yoshlaridan boshlab, otasi yonida bo‘ladi, tez-tez muhorabalarda qatnashib, o‘zini ko‘rsata boshlaydi”⁷.

Umarshayx mirzo yoshligidan harbiy qobiliyatini namoyon qilgan. Amir Temurning harbiy yurishlarida faol qatnashib Farg‘ona viloyati hokimi sifatida viloyatni mo‘g‘ullar bosqinidan himoya qilishda jonbozlik ko‘rsatganligini Natanziy ham tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шарофиддин Али Яздий. «Зафарнома». Т., «Мехнат», 1994 йи.
2. Ravshanov P. Amir Temur sulolasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013.

⁶Ravshanov P. Amir Temur sulolasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. B-130.

⁷Ravshanov P. Amir Temur sulolasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. B-130.

INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR RESEARCH & DEVELOPMENT

SJIF 2019: 5.222 2020: 5.552 2021: 5.637 2022: 5.479 2023: 6.563 2024: 7,805

eISSN :2394-6334 <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd> Volume 11, issue 04 (2024)

3. Natanziy. Muntahab ut-tavorixi Muiniy. – B.12
4. Shomiy Zafarnoma. – B.82
5. Begimqulova, L. (2020). STUDY OF THE POLITICAL PROCESSES IN TRANSOXIANA IN 1405-1409 IN THE WORKS O
6. Begimqulova, L. (2020). STUDY OF THE POLITICAL PROCESSES THAT TOOK PLACE IN TRANSOXIANA IN 1405-1409 IN FRENCH HISTORIOGRAPHY. In *WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS* (pp. 76-78). F ENGLISH HISTORIANS. In *INNOVATSIONNOE RAZVITIE: POTENTIAL NAUKI I SOVREMENNOGO OBRAZOVANIYa* (pp. 65-67).
7. Begimkulova, L. M. (2020). Amir Tumur vafotining dastlabki kunlaridagi siyosiy jarayonlarda SHayx Nuriddin va SHohmaliklarning tutgan o’rni. Vzglyad v Proshloe, 3(11).
8. Begimqulova, L. (2022). Amir Temur vafotidan keyin Movarounnahrda yuz bergan tarixiy voqiyalarga turkiyalik temurshunoslar qarashlari. Barqarorlik va yetakchili tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(10), 223-225.
9. Begimqulova, L. (2022). Relations Between the Children of the Temuri Queens After the Death of Amir Temur. *International Journal of Formal Education*, 1(10), 127-133.
10. Begimqulova, L. XVasr boshlarida Movarounnahrda kechgan siyosiy voqealarda Saroymulkxonimning tutgan o’rni. Journal of innovatsinsin in social sciences 2022. 100-104 betlar.
11. Begimqulova, L. Rui Gonsales De Klavixo About Temurian Princesses. Modern Journal of Sciences and Humanities.2022.631-635
12. Begimqulova, L. Temuriylar davriga Rossiya Imperiyasi hamda sovet davri tarixchilarining qarashlari. FarDU Ilmiy xabarlar. 2022.739-741-betlar.
13. Begimqulova, L. Temuriy shahzodalarni harbiy va davlat ishlariga tayyorlashda otaliq amirlarning o’rni. FarDU Ilmiy xabarlar. 2022.755-756-betlar.
14. Begimqulova, L. Temuriy shahzodalarining taxt uchun keskin harakatlari (1405-1406 yillar).FarDU Ilmiy xabarlar. 2022.749-750-betlar.
15. Begimqulova, L. Relations Between the Children of the Temuri Queens After the Death of Amir Temur. International Journal of Formal Education 2022. 127-133 betlar.
16. Begimqulova, L. Study of the history of Amir Temur and the Timurid era during the years of independence. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research. 2023. 102-106 betlar.
17. Begimqulova, L. Adminstrative structure and management procedures of the state of Amir Temur. international bulletin of applied science and technology. 2023. 932-935 betlar.
18. Begimqulova, L. Amir Temur davri tarixini yorituvchi manbalar tahlili. Евразийский журнал технологий и инноваций 2023. 211–215 betlar.
19. Begimqulova Laylo Mashrabovna AMIR TEMUR TARIXIDAGI BUYUK SARKARDALIK FAOLIYATI Journal of Advanced Research and Stability Volume: 03 Issue: 12 | Dec - 2023 ISSN: 2181-2608

**INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR
RESEARCH & DEVELOPMENT**

SJIF 2019: 5.222 2020: 5.552 2021: 5.637 2022:5.479 2023:6.563 2024: 7,805
eISSN :2394-6334 <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd> **Volume 11, issue 04 (2024)**

20. Begimqulova Laylo STUDY OF AMIR TEMUR'S LIFE AND STATE ACTIVITY. BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT ISSN: 2835-3579"Best Research Methods of Science, Education and Modernity"